

RAQOBATSIZ TA'LIM (FINLANDIYA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)

Mirzaeva Kamola Uralovna

Xalqaro Nordik universiteti 2-kurs magistranti

ОБРАЗОВАНИЕ БЕЗ КОНКУРЕНЦИИ (НА ПРИМЕРЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ФИНЛЯНДИИ)

Мирзаева Камола Ураловна

Магистр 2 курса Международного Университета Нордик

EDUCATION WITHOUT COMPETITION (ON THE EXAMPLE OF THE FINNISH EDUCATION SYSTEM)

Mirzaeva Kamola Uralovna

2nd year Master's student of the International Nordic University



E-mail:

kmirzayeva212@gmail.com

+998908968806

<https://orcid.org/0009-0002-2537-4140>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Finlandiya ta'lismizining raqobatsizlik tamoyiliga asoslangan modeli tahlil qilinadi. Ta'linda tenglik, hamkorlik va o'quvchilarga erkinlik berish tizimning asosiy jihatlari sisatida ko'rsatiladi. Raqobatsizlikning o'quvchilar psixologik farovonligi, ijodkorlik va jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, baholash tizimi va ta'linda stresssiz muhit yaratishning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Finlandiya ta'lismiz, raqobatsizlik, ijodkorlik, ijodiy erkinlik, o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lismiz, stresssiz muhit.

Аннотация: В статье анализируется модель финской системы образования, основанная на принципе неконкуренции. Равенство в образовании, сотрудничество и предоставление свободы учащимся выделяются как основные аспекты системы. Подчеркивается роль неконкуренции в развитии психологического благополучия учащихся, креативности и социального равенства в обществе. Также рассматривается система оценки и важность создания среды обучения без стресса.

Ключевые слова: финская система образования, отсутствие конкуренции, креативность, творческая свобода, личностно-ориентированное образование, среда, свободная от стресса.

Annotation: This article analyzes the model of the Finnish education system based on the principle of non-competition. Equality in education, cooperation and giving freedom to students are highlighted as the main aspects of the system. The role of non-competition in the development of students' psychological well-being, creativity and social equality in society is highlighted. It also examines the assessment system and the importance of creating a stress-free learning environment.

Key words: Finnish education system, non-competition, creativity, creative freedom, student-centered education, stress-free environment.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Finlandiya ta'lismizining raqobatsizlik tamoyiliga asoslangan modeli tahlil qilinadi. Ta'linda tenglik, hamkorlik va o'quvchilarga erkinlik berish tizimning asosiy jihatlari sisatida ko'rsatiladi. Raqobatsizlikning o'quvchilar psixologik farovonligi, ijodkorlik va jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, baholash tizimi va ta'linda stresssiz muhit yaratishning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

boshqichlardan o'tgan. Finlandiya ta'limi ko'plab o'zgarishlarga uchrab, zamonaviy yondashuvlarni qo'llash orqali rivojlanib borgan. 1980-yillardan boshlab, Finlandiya ta'lismiz o'quvchilarga erkinlik va ijodkorlik berishga ko'proq e'tibor bera boshladi. Baholash tizimining o'zgartirilishi va

an'anaviy sinovlardan voz kechish ta'lim jarayonida raqobatni minimallashtirishga imkon yaratdi.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Samarali ta'lim tizimini yaratish uzoq muddatli islohotlar va jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchanlikni talab qiladi. Ushbu bosqichni muvaffaqiyatli bosib o'tgan Finlandiya ta'lim tizimi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyoda yetakchi o'rinni egallay boshladi [1]. PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro tadqiqotlarda Finlandiya o'quvchilari yuqori natijalarga erishdi. Bu natijalar Finlandiya ta'lim tizimi global miqyosda tan olinishi va uning noyob yondashuvlari boshqa mamlakatlar tomonidan ham o'rganilishiga sabab bo'ldi. Ta'lim tizimining muvaffaqiyatiga ta'limda tenglikka e'tibor qaratish, barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish, raqobatsizlikni targ'ib qilish va o'qituvchilarga erkinlik berish kabi yondashuvlar asosiy omil bo'ldi. Finlandiya ta'lim tizimi, o'zining asosiy tamoyillari bilan boshqa ko'plab mamlakatlardan farq qiladi. Ushbu tamoyillar ta'lim jarayonini tashkil etishda va uni boshqarishda asosiy yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Insonparvarlik, tenglik, erkinlik va o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim Finlandiya ta'limining ajralmas qismidir. Ushbu prinsiplar Finlandiya ta'lim tizimini yanada demokratik va barcha uchun ochiq qilgan [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Insonparvarlik tamoyili, ta'lim jarayonida o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Bu o'quvchilarga nafaqat bilim, balki insoniy qadriyatlar, jamiyatda o'z o'rnni topish, jamoaviylik hissini shakllantirish va mas'uliyatlari shaxs bo'lib shakllanishlariga yordam beradi. O'quvchilar qobiliyat va imkoniyatlariga qarab rivojlanishi kerakligi e'tiborga olinadi.

Tenglik Finlandiya ta'limining asosiy tamoyillaridan biridir. Ta'limning barcha uchun ochiqligi va barcha ijtimoiy qatlamdagi bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida Finlandiyada ta'lim mutlaqo bepul. Ta'lim tizimi qashshoqlik yoki iqtisodiy tengsizlik kabi omillarni hisobga olmay, har bir bola uchun eng yuqori sifatlari ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Bu tamoyil asosida, Finlandiyada o'quvchilar oilaviy kelib chiqishidan qat'i nazar bir xil imkoniyatlarga ega bo'ladi. Mamlakatda xususiy maktablar deyarli

mavjud emas, davlat maktablari esa juda yuqori sifat bilan xizmat ko'rsatadi.

Erkinlik tamoyili Finlandiya ta'lim tizimining eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar va o'qituvchilarga erkinlik berish orqali Finlandiya ta'lim tizimi ijodkorlik va mustaqillikni rivojlantirishga intiladi. O'quvchilar o'zlarini erkin his qilib, o'z qiziqishlariga qarab ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar yaratiladi. O'qituvchilar ham darsni qanday o'tkazishni mustaqil ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo'lib, ularga ta'lim dasturlarini moslashtirish va ijodkorlik bilan ishslash huquqi berilgan [3].

O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi Finlandiya ta'lim tizimining yana bir muhim elementi hisoblanadi. Bu prinsiplarga ko'ra, ta'lim jarayoni o'quvchining shaxsiy ehtiyojları, qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtiriladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar passiv bilim oluvchilar emas, balki faol ishtirokchilarga aylanadi. O'quvchilarga ko'proq mustaqillik va o'z bilim jarayonini boshqarish erkinligi beriladi. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Finlandiya ta'lim tizimining eng ajralib turuvchi xususiyatlaridan biri uning raqobatga bo'lgan munosabatidir. Ko'plab mamlakatlarda ta'lim tizimi o'quvchilar o'rtasidagi raqobatga asoslangan bo'lsa, Finlandiyada buning aksini ko'rishimiz mumkin. Raqobat o'rniga o'zaro hamkorlik va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga katta ahamiyat qaratiladi. O'quvchilarni bir-biriga qarshi qo'ymasdan, ularni o'z qobiliyatlariga ko'ra rivojlantirishga e'tibor qaratiladi [4]. Ya'ni har bir o'quvchida turlicha qobiliyat va iqtidor bo'ladi deb qaraladi va o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlariga diqqat qaratishadi. Finlandiyada raqobatsiz o'qitish ta'limda sog'lom ruhiy muhitni saqlashning asosiy yo'llaridan biri deb hisoblanadi. Shuningdek, raqobatsizlik o'quvchilarni doimiy bosim va stressdan himoya qiladi, bu esa ularning psixologik salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar baholanishda o'zaro taqqoslanmaydi, aksincha, har biri o'z yutuqlari va rivojlanish darajasi bo'yicha baholanadi. Bu tizim o'qituvchilarga ham katta erkinlik beradi. Ular o'quv dasturlari qat'iy belgilangan tizimga bo'ysunmagan holda, ijodkorlik bilan dars o'tish imkoniyatiga egadirlar. Bu esa o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil qilishga yordam beradi. Finlandiya

ta’lim tizimining baholash usullari ham uning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Finlandiyada sinovlar va reyting tizimi an’anaviy ta’lim tizimlaridagidek markaziy rol o‘ynamaydi. Aksincha, o‘quvchilarning bilimlari va rivojlanish darajalari davomiy kuzatishlar orqali aniqlanadi. Baholash tizimida o‘quvchilarning natijalari reyting tizimi orqali emas, balki ularning individual rivojlanishiga asoslanadi. Bu o‘quvchilarning yutuqlarini faqatgina bir-biri bilan taqqoslashdan ko‘ra, o‘z shaxsiy maqsadlari va imkoniyatlari doirasida baholashga yo‘naltirilgan. Maktablarda ko‘plab an’anaviy sinovlar o‘tkazilmaydi, o‘quvchilarga ma’lum vaqt oralig‘ida o‘z maqsadlariga erishganliklari haqida xabar beriladi. Sinovlar yoki imtihonlar o‘quvchilarni bilimini o‘lhash vositasi emas, balki ularning rivojlanish jarayonini tahlil qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun ishlataladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi va ularning stress darajasini kamaytiradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Raqobatsiz ta’lim tizimi o‘quvchilarning psixologik salomatligi uchun juda muhim omil hisoblanadi. Ko‘plab mamlakatlarda mavjud bo‘lgan raqobatga asoslangan ta’lim tizimlari o‘quvchilarda yuqori darajada stress va bosimni keltirib chiqaradi. Bunday muhitda o‘quvchilar doimiy ravishda o‘z tengdoshlariga nisbatan o‘z yutuqlarini o‘lhashga majbur bo‘ladilar [5]. Bunday bosim esa ko‘pincha ruhiy zo‘riqish va stress holatlariga olib keladi. Finlandiyada esa raqobatning yo‘qligi, o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlariga mos ravishda rivojlanish imkonini beradi. O‘quvchilar o‘z bilimlari va qobiliyatlarini erkin rivojlantiradi, ular o‘zlarini boshqa o‘quvchilar bilan solishtirishdan qochadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi va ularni ijobiy muhitda o‘qishga rag‘batlantiradi. Natijada, stress

darajasi past bo‘lgan bolalar yanada faol va ijtimoiylashgan shaxs bo‘lib yetishadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Finlandiya ta’lim tizimining raqobatsizlikka asoslangan yondashuvi o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki jamiyat uchun mas’uliyatli, hamkorlikka tayyor va ijtimoiy jihatdan faol shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi. Bu tizimning ta’limda tenglik, hamkorlik va stressiz rivojlanish tamoyillariga asoslanishi jamiyatning umumiyl rivojlanishiga, barqarorligiga va insoniy qadriyatlarining mustahkamlanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Nosirov A. Erkinlik, quvnoqlik va ishonchga asoslangan ta’lim. – Toshkent: Ma`rifat, 2024. – 87 b.
2. Ari Pokka. Top Class: Finnish School Leadership and Management. – Jyvaskyla. 2015. – p. 35-36.
3. Aho E., Pitkanen K., Sahlberg P. Policy Development and Reform Principles of Basic and Secondary Education in Finland since 1968. 2006. – 132 p.
4. Ibragimov Sh.M. Theoretical foundations of the problem of individualization of teaching as a basic principle in teaching. 2021. – 83 p.
5. Yuldasheva G. I. Shermatova K. M. The use of adaptive technologies in the educational process. Экономика и социум, 2021. – Р. 466-468.
6. Локшта О.М. К проблеме самостоятельной работы студента в учебном процессе . Вестник РГУ им. И.Канта. 2006. Вып. 2. Филологические науки. – С. 25-29.

